

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'lg'in Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 9-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlar (Xorazm viloyati misolida).....9





SHO'RLANGAN MARGINAL YERLARDA SHOLI YETISHTIRISHNING IQTISODIY VA AGROEKOLOGIK JIHATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tadqiqotchisi

E-mail: feruzamatrasulova309@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0005-3189-1373/print>

Annotatsiya. Ushbu maqolada marginal yer tushunchasining iqtisodiy mohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Xorazm viloyati sharoitida marginal yerlarning mavjudligi, ularning iqtisodiy samaradorligi va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, marginal yerlar nafaqat tabiiy omillar, balki iqtisodiy sharoitlar bilan ham belgilanadi. Maqolada ushbu yerlardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: marginal yer, iqtisodiy samaradorlik, qishloq xo'jaligi, Xorazm viloyati, rentabellik, suv resurslari.

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется экономическая сущность понятия маргинальных земель и раскрывается их значение в сельском хозяйстве. Также изучаются наличие маргинальных земель в условиях Хорезмской области, их экономическая эффективность и особенности использования. По результатам исследования установлено, что маргинальные земли определяются не только природными факторами, но и экономическими условиями. В статье разработаны предложения по эффективному использованию данных земель.

Ключевые слова. маргинальные земли, экономическая эффективность, сельское хозяйство, Хорезмская область, рентабельность, водные ресурсы.

Annotation. This article theoretically analyzes the economic essence of the concept of marginal lands and reveals their importance in agriculture. It also examines the existence of marginal lands in the conditions of the Khorezm region, their economic efficiency, and the specific features of their use. According to the research results, marginal lands are determined not only by natural factors but also by economic conditions. The article proposes recommendations for the effective use of these lands.

Keywords: marginal land, economic efficiency, agriculture, Khorezm region, profitability, water resources.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida yer resurslari cheklangan sharoitda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish dolzarb hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, marginal yer tushunchasi alohida e'tiborni talab qiladi. Marginal yerlar — bu ishlab chiqarish jarayonida foyda va xarajat chegarasida joylashgan yerlar bo'lib, ularning iqtisodiy samaradorligi eng past darajada bo'ladi.

Xorazm viloyati sug'orma dehqonchilik hududi bo'lib, bu yerda sho'rlanish, suv tanqisligi va meliorativ holatning yomonlashuvi kabi omillar mavjud. Shu sababli hududda marginal yerlar ulushi yuqori bo'lib, ularni iqtisodiy jihatdan to'g'ri baholash va boshqarish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.





MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Marginal yer tushunchasi David Rikardo tomonidan yer rentasi nazariyasida asoslab berilgan. Keyinchalik Villiam Stanley Jevons va Carl Menger tomonidan marjinalizm nazariyasi orqali rivojlantirilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda esa Food and Agriculture Organization va mahalliy olimlar tomonidan marginal yerlar suv tanqisligi va tuproq degradatsiyasi bilan bog'liq holda o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi: iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash usuli, xarajat va daromad tahlili, tizimli yondashuv.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asrning 70-yillaridan boshlab qiymat nazariyasi va uni ilmiy tahlil qilishda chinakam inqilobiy o'zgarish yuz berdi. David Ricardo tomonidan yaratilgan "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari") asarida yer rentasi nazariyasi asoslab berilib, marginal yerlar eng past unumdor va daromadi ishlab chiqarish xarajatlari tenglashuvchi yerlar sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, aynan marginal yerlar orqali qishloq xo'jaligida narx shakllanishi va renta miqdori aniqlanadi, bu esa yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[1]. Aynan shu davrda Yevropaning bir nechta mamlakatlarida turli nazariy maktablar shakllandi va ular tomonidan yaratilgan iqtisodiy ta'limot fanda "marginalizm" deb nomlana boshladi. Ushbu ta'limot XX asrning 30-yillarigacha iqtisodiy fikr rivojida muhim o'rin egallab, o'z mavqeini saqlab turdi. "Marginalizm atamasi fransuzcha "marginal" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "chegara", "eng yuqori" yoki "oxirgi qo'shimcha birlik" ma'nolarini anglatadi"[2]. Mazkur yondashuv iqtisodiy hodisalarni aynan oxirgi birlikdan olinadigan foyda va xarajatlari asosida tushuntirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi dastlabki ilmiy fikrlar Villiam Stanley Jevons tomonidan 1862-yilda Britaniya fanlarini rivojlantirish assotsiatsiyasida taqdim etilgan "Siyosiy iqtisodning umumiy nazariyasi haqida qisqacha bildirish" nomli ma'ruzasida bayon etilgan. Keyinchalik u 1871-yilda Angliyada chop etilgan "Siyosiy iqtisod nazariyasi" asarida ushbu g'oyalarni chuqur ilmiy asoslab berdi. Xuddi shu yili Avstriyada Karl Menger tomonidan "Siyosiy iqtisod asoslari" nomli asar nashr etilib, unda ham "eng yuqori foydalilik" nazariyasi batafsil tahlil qilindi hamda matematik formulalarsiz ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu tariqa marginalizm iqtisodiy nazariyada yangi bosqichni boshlab berdi va iqtisodiy qarorlarni tushuntirishda marjinal yondashuv asosiy metodologik vositaga aylandi.

Marginalizm nazariyasini qishloq xo'jaligiga tatbiq etish yer resurslarining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish omili bo'lib, uning unumdorligi, suv bilan ta'minlanganligi va meliorativ holati hududlar kesimida farqlanadi. Shu jihatdan marginal yondashuv yerning aynan oxirgi qo'llanilgan birligidan olinadigan natijani baholash imkonini beradi. Marginal yerlar deganda qishloq xo'jaligida





foydalanilganda olinadigan daromad ishlab chiqarish xarajatlariga tenglashadigan yoki undan past bo'lgan yerlar tushuniladi. Bunday yerlarda ishlab chiqarish ko'pincha past rentabellik bilan yoki zarar bilan amalga oshiriladi. Marginal yerlarning shakllanishiga tuproq unumdorligining pastligi, sho'rlanish darajasi, suv tanqisligi va meliorativ holatning yomonligi sabab bo'ladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, marginal yerlar asosan tuproq degradatsiyasi, sho'rlanish, suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi natijasida shakllanadi. Ushbu tashkilot hisobotlarida qishloq xo'jaligida bunday yerlarning ulushi ortib borayotgani va bu holat oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, FAO marginal yerlarning samaradorligini oshirish uchun suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, tuproqni tiklash va barqaror agrotexnik yondashuvlardan foydalanishni tavsiya etadi[3].

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish orqali bunday yerlarning samaradorligini oshirish mumkin. Marginal yer tushunchasi nisbiy bo'lib, u vaqt va sharoitga qarab o'zgarib turadi. Demak, marginal yerlarni aniqlash va ulardan oqilona foydalanish qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Dunyoning ko'plab sholi yetishtiriladigan hududlarida tuproq sho'rlanishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini cheklovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qirg'oqbo'yi va pasttekisliklarda joylashgan sho'rlangan yerlar sholi hosildorligining pasayishiga, og'ir hollarda esa ekinlarning nobud bo'lishiga olib keladi. Shu sababli sho'rlangan tuproqlarni samarali boshqarish, sho'rga chidamli sholi navlarini yaratish va zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash bunday yerlarda hosildorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sho'rlanishga chidamli navlar va ilmiy asoslangan tuproq boshqaruvi usullarini birgalikda qo'llash sho'rlangan maydonlarda sholi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi[4].

Sho'rlangan tuproqlarga uch guruh tuproq toifalari kiritilgan: 1) sho'rxok va sho'rxoksimon; 2) ishqoriy tuproqlar, sho'rtob, sho'rtobsimon tuproqlar va taqirlar 3) solodlar[4, 139-b.]. Sho'rlangan tuproqlar ichida sholi yetishtirish uchun eng maqbul turi sho'rxoksimon tuproqlar hisoblanadi. Chunki ularda tuzlar asosan pastki qatlamlarda yoki nisbatan kam miqdorda to'plangan bo'lib, meliorativ tadbirlar (yuvish, drenaj, tekislash va to'g'ri sug'orish) orqali unumdorligini oshirish mumkin. Sholi suv ostida yetishtiriladigan ekin bo'lgani sababli, u boshqa don ekinlariga nisbatan sho'rlanishga nisbatan bardoshliroq hisoblanadi va tuzlarni yuvishga ham yordam beradi. Ammo kuchli sho'rxok tuproqlarda tuz miqdori juda yuqori bo'lgani uchun, avval meliorativ ishlar amalga oshirilmasdan turib sholi ekish tavsiya etilmaydi.

2021–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida sholi yetishtirish hududlar kesimida sezilarli differensiallashuv kuzatilib, bu jarayon marginal yerlar tushunchasi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.





1-jadval

**2021–2024-yillarda O'zbekiston hududlari kesimida sholi yetishtirish
dynamikasi va marginal yerlar ta'siri**

Hududlar	2021 (ming t)	2024 (ming t)	O'zgarish	Tendensiya
Xorazm	139,3	150,8	+11,5	Barqaror o'sish (yetakchi)
Farg'ona	36,5	49,4	+12,9	Sezilarli o'sish
Namangan	20,9	24,6	+3,7	Barqaror o'sish
Toshkent viloyati	27,3	29,4	+2,1	Nisbatan barqaror
Sirdaryo	27,3	49,7	+22,4	Keskin o'sish
Surxondaryo	6,1	10,6	+4,5	Tebranishli o'sish
Buxoro	7,2	12,9	+5,7	Yangi o'sish zonasi
Jizzax	1,1	1,1	0	Barqaror (kichik hajm)
Qoraqalpog'iston Respublikasi	52,8	13,2	-39,6	Keskin pasayish
Qashqadaryo	0	0	0	Yetishtirilmaydi
Navoiy	0	0	0	Yetishtirilmaydi

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi (2021–2024 yy.) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqorida keltirilgan jadval orqali ko'rish mumkinki Qoraqalpog'iston Respublikasida sholi yetishtirish hajmi 52,8 ming tonnadan 13,2 ming tonnagacha keskin kamayib, yerlarning sho'rlanishi va suv taqchilligi ularni iqtisodiy jihatdan marginal holatga olib kelganini ko'rsatadi. Aksincha, Xorazm viloyatida ishlab chiqarish 139,3 ming tonnadan 150,8 ming tonnagacha oshib, suv bilan ta'minlangan hududlarda yuqori samaradorlik saqlanib qolgan. Sirdaryo viloyati va Farg'ona viloyatida ham sezilarli o'sish kuzatilib, ular yangi o'sish nuqtalariga aylangan. Ushbu statistik natijalar shuni ko'rsatadiki, marginal hududlarda an'anaviy yondashuv samarasiz bo'lib, yangi agrotexnologik yechimlarni joriy etish zarur.

Xorazm viloyati sharoitida marginal yerlar muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib, bu hududning tabiiy-iqlim va meliorativ xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Viloyatda sug'oriladigan yerlar ulushi yuqori bo'lib, asosiy suv manbai Amudaryo hisoblanadi, biroq suv resurslarining cheklanganligi va mavsumiy taqsimlanishi qishloq xo'jaligi samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki Amudaryo havzalari tekis maydoni umuman pasttekislikni tashkil etib, drenaj suvlarini quyilish ehtimoli kam, iqlimni quruqligi, yog'ingarchilikni kamligi, juda yuqori bug'lanish yerni yuqori gorizontidagi tez eruvchan tuzlarni yig'ilishiga olib keladi[6].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm viloyatida sug'oriladigan yerlarning katta qismi turli darajada sho'rlangan bo'lib, ayrim hududlarda sho'rlanish darajasi 40–60 foizgacha yetadi. Bu esa tuproq unumdorligini pasaytirib, hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, suvni ko'p talab qiladigan sholi yetishtirish jarayonida bu muammo yanada keskinlashadi, chunki sholi yetishtirish uchun mavsum davomida o'rtacha 20–25 ming m³/ga suv sarflanadi.





Respublikani sug'oriladigan yerlari 2170,7 ming.ga.ni tashkil qiladi. Bundan yuvilgan yerlar 17,5 ming.ga. kam sho'rlangan yerlar 1344,6 ming.ga. o'rtacha sho'rlangan yerlar 663,5 ming.ga. ko'p sho'rlangan yerlar 162,6 ming.ga.ni tashkil qiladi. Bu holatni Xorazm viloyati bo'yicha ko'radigan bo'lsak quyidagicha ma'lumotlarga ega bo'lamiz. 2023 yilgi ko'rsatkichlar bo'yicha sug'oriladigan yerlarning 55% i kuchsiz, 33% i o'rtacha, 11-12% i kuchli darajada sho'rlangan. 2018 yilda esa sug'oriladigan yerlarning 50% i kuchsiz, 33% i o'rtacha, 10% i kuchli sho'rlangan va 7% i sho'rlanmagan. 2023 yildagi suv tanqisligi sharoitida o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlarning foizi o'sgan bo'lsa (48% va 16%), kuchsiz sho'rlangan tuproqlar 48% ga tushgan. Tuproqning tuz tarkibida, asosan, xloridli va sulg'fatli tuzlar ustunlik qilib, ularning tarqalishi yuqori 2 metrli kesmada 50 - 833 t/ga ni tashkil etadi. Sho'rlanish darajasi ekiladigan ekinlarning turi va yer osti suvlarining sathi hamda mineralizatsiyasiga bog'liq holda hududiy tafovutlarga ega. Olingan ma'lumotlar natijasi bo'yicha viloyat yer yuzasining mutloq balandligi 77 metr bo'lgan Gurlan va Qo'shko'pir tumanlarida juda kuchli sho'rlangan tuproqlarning keng tarqalganligi kuzatildi. Tuproqning 0–1 metr qatlamidagi oson eruvchi tuzlar miqdorining ko'pligi bo'yicha ham relyefning past hududlarida joylashgan Yangiariq, Qo'shko'pir, Shovot va Yangibozor tumanlari alohida ajralib turadi. Bu yerlarda 0–1 metr qatlamda oson eruvchi tuzlar miqdori 200–300 t/ga ga teng[7].

Keltirilgan ma'lumotlar Xorazm viloyatida tuproqlarning sho'rlanish darajasi yuqori ekanligini va so'nggi yillarda bu muammoning yanada kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Sug'oriladigan yerlarning katta qismi turli darajada sho'rlangan bo'lib, ayniqsa suv tanqisligi sharoitida o'rtacha va kuchli sho'rlangan maydonlar ulushi ortmoqda. Bu holat tuproq unumdorligining pasayishiga, hosildorlikning kamayishiga hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligining yomonlashishiga olib kelmoqda. Shuningdek, relyefning past hududlarida va yer osti suvlari sathi yuqori bo'lgan tumanlarda sho'rlanish jarayoni yanada kuchli namoyon bo'lib, bu hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyatini yuritishda qo'shimcha meliorativ choralarni talab etadi. Shu sababli, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, lazer tekislash, drenaj tizimlarini yaxshilash va agrotexnik tadbirlarni kuchaytirish orqali bunday yerlarning samaradorligini oshirish mumkin. Demak, Xorazm viloyatida marginal yerlar muammosi suv resurslari, sho'rlanish va ishlab chiqarish xarajatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni kompleks yondashuv asosida hal etish zarur hisoblanadi.

Marginal yer tushunchasi agroiqtisodiyot va kichik biznes nuqtai nazaridan qaralganda, u yer resurslaridan foydalanish samaradorligi va daromadlilik darajasiga bog'liq bo'lgan nisbiy iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, suv tejovchi usullar (tomchilatib sug'orish, lazerli tekislash), resurslardan oqilona foydalanish hamda davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar va imtiyozlar orqali ushbu yerlarning rentabelligini oshirish mumkin.





O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"[8] 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-fevraldagi 97-son "Sholi yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"[9]gi qarori qabul qilingan bo'lib Xorazm viloyatida sholi yetishtiruvchilarni qo'llab-quvvatlash, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash hamda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida davlat tomonidan subsidiya va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari kuchaytirilgan.

Natijada marginal yerlar kichik biznes uchun yangi imkoniyat manbaiga aylanib, qishloq xo'jaligida bandlikni oshirish, daromadlarni diversifikatsiya qilish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan marginalizm nazariyasi agroiqtisodiyotda resurslarni samarali taqsimlash va kichik biznes faoliyatini optimallashtirish uchun amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

2021–2024-yillar davomida sholi yetishtirish hududlar kesimida sezilarli differensiallashuv yuzaga kelib, ayrim hududlarda ishlab chiqarish pasayishi ularning marginal yerlar toifasiga o'tayotganini anglatadi. Xususan, suv taqchilligi va sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda samaradorlik keskin kamaygan bo'lsa, Xorazm viloyati misolida aksincha barqaror o'sish kuzatilib, ishlab chiqarish 139,3 ming tonnadan 150,8 ming tonnagacha oshgan. Bu holat Xorazmda sug'orish tizimlarining nisbatan barqarorligi va sholi yetishtirish bo'yicha ixtisoslashuv yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Shuni ham inobatga olish lozimki, Xorazm viloyati ayrim hududlarining sho'rlanish darajasi 40–60% gacha yetadi, bu esa hosildorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sholi yetishtirish uchun mavsum davomida o'rtacha 20–25 ming m³/ga suv sarflanishi mavjud muammoni yanada kuchaytiradi. Tuproq tarkibidagi tuzlar yuqori 2 metr qatlamda 50–833 t/ga ni tashkil etadi, 0–1 metr qatlamda esa ayrim tumanlarda 200–300 t/ga ga yetadi. Ayniqsa, Gurlan va Qo'shko'pir tumanlarida kuchli sho'rlanish keng tarqalgan, Yangiariq, Shovot va Yangibozor tumanlari esa yuqori tuz to'planishi bilan ajralib turadi[10].

Ushbu ko'rsatkichlar hududda marginal yerlar ulushi ortib borayotganini va ularning iqtisodiy samaradorligi pasayib borayotganini tasdiqlaydi. Bunday holatda, marginal yerlarda sholi yetishtirishni to'liq qisqartirish emas, balki optimallashtirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Xorazm viloyatida ham kam suv talab qiladigan navlarni joriy etish, lazerli tekislash va navbatlab sug'orish texnologiyalarini keng qo'llash orqali suv sarfini kamaytirish mumkin. Shuningdek, meliorativ holati og'ir hududlarda drenaj tizimini yaxshilash va ekin almashinuvi asosida tuproq unumdorligini tiklash muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan subsidiya va imtiyozlar berilishi esa nafaqat marginal hududlarda, balki Xorazm kabi yetakchi hududlarda ham ishlab chiqarish barqarorligini saqlashga xizmat qiladi. Natijada, hozirda pasayish kuzatilayotgan hududlarni tiklash bilan birga, yetakchi hududlarda ham resurslardan samarali foydalanish orqali barqaror qishloq xo'jaligi tizimini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.





XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sholi yetishtirish samaradorligini oshirish va marginal yerlar muammosini yumshatish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash orqali sho'rlanish darajasini kamaytirish va tuproq unumdorligini tiklash mumkin. Marginal hududlarda esa ekin strukturasini optimallashtirish, Marginal yerlarda sholi yetishtirish samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri — suv kam talab qiladigan sholi navlarini joriy etish hisoblanadi. An'anaviy navlarga nisbatan suv sarfi past bo'lgan, qisqa vegetatsiya davriga ega va sho'rlanishga chidamli navlarni ekish orqali suv tanqisligi sharoitida ham barqaror hosil olish mumkin. Bunday navlar suv iste'molini kamaytirish bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiradi va marginal hududlarda iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, Xorazm viloyati kabi sug'orishga bog'liq hududlarda suv tejovchi navlarni keng joriy etish kelajakda yerlarning marginallashtirishini oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois, ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan yaratilgan zamonaviy, moslashuvchan va resurs tejamkor sholi navlarini amaliyotga keng tatbiq etish zarur bo'lib, bu qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ricardo D. Principles of Political Economy and Taxation.
2. Tashmatov Sh., Xasanxonova N.I. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: o'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2020. – 488 b. (251-bet).
3. FAO. Land degradation and marginal lands reports.
4. Philippine Rice Research Institute (PhilRice). Management of Salt-Affected Soils for Rice Production. – Rice Technology Bulletin Series No. 40. – Muñoz, Nueva Ecija, Philippines: Philippine Rice Research Institute, 2001. – 48 p.
5. Tursunov H.X. Tuproqshunoslik: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2017. – 166 b.
6. Ikromov R.K., Baraev F.A., Yusupov G'U. va b. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ monitoringi va kadastr. – T., 2008. – 324 b.
7. Dusanova Sh.B., Xojyazova D.Sh. Xorazm viloyati tuproqlarning hozirgi ekologik holatini baholash // "Экономика и социум". – 2024. – №6 (121)-2. – 122-b. – www.iupr.ru
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. – 2024-yil 15-avgust, PQ-290-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Sholi yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. – 2025-yil 17-fevral, 97-son.
10. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**